

SONG AND DANCE — THE ETERNAL REFLECTION OF OUR NATIONAL HERITAGE

Xolboyev Islombek Shuhrat o'g'li

Student, Faculty of Arts and Sports Kokand State University

Scientific Supervisor: Madolimov Dilmurodjon Yusufovich

Abstract

This article examines the history of the emergence of Uzbek national song and dance arts, their role in the spiritual life of the people, and the state-level reforms currently aimed at developing this sphere. Based on historical sources, the study highlights the evolution of these art forms and the distinctive characteristics of regional artistic schools. The research emphasizes the significance of song and dance as integral components of Uzbekistan's cultural heritage, reflecting national identity, traditions, and aesthetic values. It also discusses contemporary efforts to preserve and promote these art forms for future generations.

Keywords

song, dance, heritage, national identity, culture.

ASHULA VA RAQS — MILLIY MEROSIMIZNING BOQIY JILOSI

Qo'qon davlat universiteti san'at va sport fakulteti

Xolboyev Islombek Shuhrat o'g'li

Ilmiy rahbar: Madolimov Dilmurodjon Yusufovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek milliy ashula va raqs san'atining vujudga kelish tarixi, uning xalq ma'naviy hayotidagi o'rni hamda bugungi kunda ushbu sohani rivojlantirishga qaratilayotgan davlat ahamiyatiga molik islohotlar tahlil qilinadi. Maqolada tarixiy manbalarga tayanilgan holda san'at turlarining evolyutsiyasi va mintaqaviy maktablarning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ashula, raqs, meros, milliylik, madaniyat.

So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san‘atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta‘minlash, madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda har bir xalq globollashuv jarayonlaridan chetda tura olmaydi. Adabiyot, san‘at milliy teatrlar, konsert jamolari sayharakatlari, adabiyotlar tarjimasini, rasm va tasviriy san‘at ko‘rgazmalari, badiiy faoliyatining boshqa shakllari Shuningdek “Ashula va raqs ansmbli” badiiy havaskorlik jamoalari ham qaysidir ma’noda millatimiz tarixini, uning rivojini aks ettiradi. Xalqimiz mustaqillikka erishgach, hukumatimiz rahbariyati tomonidan milliy musiqaga, badiiy havaskorlikka bo‘lgan e’tibor, farzandlarimizning har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib kamol topishlari uchun ularni yuksak ma’naviyati, milliy istiqloq g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash o‘ta dolzarb vazifa qilib belgilandi. San‘atning turli yo‘nalishlari kabi Xonandachilik san‘ati ham yuqorida bildirilgan fikrlar doirasiga muvofiq asrlar osha xalq orasida rivojlanib taraqqiy topmoqda.

Insoniyat madaniyati tarixida shunday qadriyatlar borki, ular millatning o‘zligini, ruhiyatini va dunyoqarashini ko‘zgudek aks ettiradi. O‘zbek xalqi uchun ashula va raqs san‘ati ana shunday bebaho xazinadir. Bu san‘at turlari asrlar davomida shakllanib, ajdodlarimizning quvonchi, dardi va orzu-umidlarini kuy hamda harakatlar vositasida avlodlardan avlodga yetkazib kelmoqda. Musiqa — qalb tili bo‘lsa, raqs — tana harakatidagi she’riyatdir. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ashula va raqs shunchaki ko‘ngilochar vosita emas, balki tarbiya va ma’naviyat manbai bo‘lib xizmat qilgan.

Beshik quchgan onaning "Allasi"dan tortib, to'y-tomoshalardagi jo'shqin "Lazgi" gacha — barchasi inson hayotining ajralmas qismiga aylangan.

Milliy Ashulachilik: Maqomdan Lapargacha

O'zbek milliy musiqasi o'zining janriy rang-barangligi bilan dunyoni hayratga solib keladi. Bu borada, ayniqsa, quyidagi yo'nalishlar alohida o'rin tutadi:

- **Maqom san'ati:** Mumtoz musiqamizning cho'qqisi hisoblangan "Shashmaqom" insonni chuqur falsafiy mushohadaga chorlaydi. Uning murakkab usullari va dardli navolari qalblarni poklaydi.

- **Xalq qo'shiqlari:** Lapar, yalla va o'lanlar xalqimizning kundalik hayotini, urf-odatlarini sodda va samimiy tilda bayon etadi.

- **Baxshichilik:** Dostonchilik an'analari, ayniqsa, janubiy vohalarimizda mardlik va vatanparvarlikni tarannum etuvchi jonli ijro maktabi sifatida shakllangan.

Insoniyat madaniyati tarixida shunday qadriyatlar borki, ular millatning o'zligini, ruhiyatini va dunyoqarashini ko'zgudek aks ettiradi. O'zbek xalqi uchun **ashula va raqs san'ati** ana shunday bebaho xazinadir. Bu san'at turlari asrlar davomida shakllanib, ajdodlarimizning quvonchi, dardi va orzu-umidlarini kuy hamda harakatlar vositasida avlodlardan avlodga yetkazib kelmoqda

Ma'naviyat Sarchashmasi

Musiqqa — qalb tili bo'lsa, raqs — tana harakatidagi she'riyatdir. O'zbek xalq og'zaki ijodida ashula va raqs shunchaki ko'ngilochar vosita emas, balki tarbiya va ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Beshik quchgan onaning "Allasi"dan tortib, to'y-tomoshalardagi jo'shqin "Lazgi" gacha — barchasi inson hayotining ajralmas qismiga aylangan.

Milliy Ashulachilik: Maqomdan Lapargacha

O'zbek milliy musiqasi o'zining janriy rang-barangligi bilan dunyoni hayratga solib keladi. Bu borada, ayniqsa, quyidagi yo'nalishlar alohida o'rin tutadi:

• **Maqom san'ati:** Mumtoz musiqamizning cho'qqisi hisoblangan "Shashmaqom" insonni chuqur falsafiy mushohadaga chorlaydi. Uning murakkab usullari va dardli navolari qalblarni poklaydi.

• **Xalq qo'shiqlari:** Lapar, yalla va o'lanlar xalqimizning kundalik hayotini, urf-odatlarini sodda va samimiy tilda bayon etadi.

• **Baxshichilik:** Dostonchilik an'analari, ayniqsa, janubiy vohalarimizda mardlik va vatanparvarlikni tarannum etuvchi jonli ijro maktabi sifatida shakllangan.

Raqs San'ati: Harakatlardagi Sehr

O'zbek raqs san'ati o'zining mintaqaviy maktablari bilan boyitilgan. Har bir hududning raqsi o'sha yerning tabiati va odamlari fe'l-atvorini ifodalaydi:

1. **Farg'ona raqsi:** Nazokat, lirik chehra harakatlari va ravonlik bilan ajralib turadi. Mashhur "Tanovar" raqsi ayol qalbi tug'yonlarining eng go'zal ifodasidir.
2. **Buxoro raqsi:** Keskin va murakkab harakatlar, yelka silkitish va "zang" usullariga boyligi bilan tomoshabinni hayratga soladi.
3. **Xorazm raqsi:** Olovli va jo'shqin. YUNESKO merosiga kiritilgan "Lazgi" raqsi o'zining "tebranish" harakatlari bilan insonni bir zumda raqsga tushishga majbur qiladi.

Ohang va Harakat Uyg'unligi

Ashula va raqs doimo bir-birini to'ldirib kelgan. Doira zarbidagi har bir "bum" va "bak" raqqosaning qadamiga, dutorning har bir nidosi esa uning nigohiga hamohang bo'ladi. Bu uyg'unlik tomoshabinda estetik zavq uyg'otish bilan birga, milliy g'urur hissini ham yuksaltiradi.

O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi san'ati sifatida, o'zbek xalqining ma'naviy boyligi chashmasi sifatida O'zbekiston xalq artistlari, jahonga dong'i ketgan ustoz san'atkorlar Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isohor Oqilov, Roziya Karimova va shu kabi boshqa buyuk namoyondalarga boy o'zbek xalq

raqs san'atiga bo'lgan qiziqish g'oyat katta. Milliy ma'naviy qadriyatlarini va go'zalligini anglash o'zbek xalqining ma'naviy boyligini oshiradi va yosh avlodni nafaqat yaxshi tarbiyalab qolmasdan, o'z Vataniga, uning meroslariga muhabbat ham uyg'otadi.

Har bir san'at sohasi hayotimizni badiiy obraz orqali ifoda etadi. Shu qatorda raqs ham san'at turlari ichida kishilik jamiyati rivojida alohida o'rin tutuvchi bir yo'nalishdir. Raqs san'ati - ijod ruhiyatini, his-tuyg'ularni, fikmi so'zsiz, faqat harakatlar va yuz ifodasi bilan xalqqa yetkazishga asoslangan san'at turidir. «Raqs - o'zingni kuyga, ohangga baxshida etib, sehrlar dunyosiga sho'ng'ib ketmoq; Ko'ngildagi bor-yo'g'ingni ko'zlarga, harakatlarga joylab tomoshabinlarga hayrat ato etmoq; Istaklaringni bir dasta gul shaklida tomoshabin hayajonlari ustidan sochmoq, ularning olqishiga muyassar bo'lmoq». Bunday buyuk tuyg'u mukammal raqs qobiliyatiga ega bo'lgan insonlarning yuragida bo'ladi. Professional raqs ansambllarining davlat va xususiy ansambllari mavjud. «Bahor» (1957- yil), «Shodlik» (1968-yil), «Lazgi» (1968-yil) ansambllari ilk tashkil qilingan professional raqs ansambllaridan hisoblanadi. 1990-yillarda «Tanovar», «Ofarin», «Toshkent zebolari», «Sabo», «Tumor», «Parizoda» va shu kabi xususiy raqs ansambllar paydo bo'ldi. Unga shu yo'nalish bo'yicha oliy ta'lim tizimida o'qib fundamental bilimga ega bo'lgan mutaxassislar ishga qabul qilinadilar. Ular ansambil rahbariyati bilan mehnat shartnomasini tuzadi va oylik maoshi bilan ta'minlanadilar. Shartnomada keltirilgan talablar bir tomondan buzilishiga yo'l qo'yilsa, ikkinchi tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo'ladi. Raqqos va raqqosalarning Yoshi chegaralanadi. 18 yoshdan ishga qabul qilinib, 36 yoshdan keyin nafaqaga chiqadilar. Ijodiy faoliyatiga qarab raqqos va raqqosalar ansambil rahbariyati yoki davlat tomonidan rag'batlantirilishi mumkin. Havaskorlik raqs ansambllari madaniyat va san'at muassasalarida, tashkilot yoki korxonalar qoshida alohida raqs ansambli, xalq ilnhula va raqs ansambllari yoki folklor-etnografik ansambllar tasarrufida bo'ladi. Bunday ansambllar raqs san'atiga ishtiyoqi baland bo'lgan, iqtidorli havaskorlardan

tashkil topadi. Ularning mutaxassisligi, ma'lumoti va Yoshi chegaralanmaydi. Ansambl ishtirokchilari ruhbariyat yoki davlat tomonidan ishga qabul qilinmaydilar va ixtiyoriy tarzda qatnashchi sifatida faoliyat olib boradilar. Hozirgi kunda juda ko'plab bolalar va kattalar havaskorlik raqs ansambllari Ijodiy faoliyatini olib bormoqdalar. Bunday ansambllar qatoriga Farg'onadagi «Anor», Surxondaryodagi «Surxon gullari», «Zevari», «Quralay», Namangandagi «Namangan gullari», Jizzaxning «Gulira'no», Sirdaryoning «Sirdaryo navolari» kabi ansambllar nomini keltirishimiz mumkin. Raqs ijrochiligi 3 turga bo'linadi: Yevropa klassik balet san'ati, Xalq sahna (professional) raqs san'ati, xalq ijodiyoti negizidagi folklor va havaskorlik raqs ijrochiligi san'atidir. Inson raqsning qaysi turi bilan shug'ullanmasin, unga mumtoz raqs asoslarini o'zlashtirish halal bermaydi. Raqqos va raqqosalar butun ijodiy faoliyati davomida mumtoz raqs bilan shug'ullanishi bejiz emas. Mumtoz raqs asoslari borliqni harakat orqali tasvirlash erkinligini va o'z tanasini musiqaning ma'lum bir o'lchovlarida nazokatli harakatlantira olish imkonini beradi.

Raqs bilan bir qatorda O'zbek xalqi tarixi va uning musiqiy ijrochiligi o'zi kabi tarixan boy va rangbarangdir. Xalq ming yillar mobaynida ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va mavqei, xursandchiligi, dardu-alamini qo'shiq va kuy orqali namoyish qilishga harakat qilgan. Musiqaga shu jumladan, qo'shiq kuylashga muhabbat xalqning qoni orqali butun vujudiga ong-shuuriga, yuragiga singib ketgan. Qo'shiqlar xalqning ijtimoiy hayotining hamma tomonlari bilan bog'langan bo'lib, ular muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan, insoniyat tafakkuri darajasiga qarab turmushni o'ziga xos obrazlarda badiiy jihatdan aks ettirgan noyob san'atdir. Xalqimizning eng yaxshi ko'rgan g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak an'anaviy qo'shiqlarida xalqning turmushi, tirikchiligi, ko'nglidagi orzu-armonlari, dard alami, shod-xurramligi va kelajakka ishonchi ifodalangan. Shuningdek, zo'ravonlik, erkinsizlik, adolatsizlikka qarshi kurashishning qudratli ovozi eshtilib turgan. Qo'shiqlarning muzmunini

voqealikning lirik g'oyasini badiiy o'zlashtirib, ya'ni yuz bergan hodisa va voqealarga munosabat, his-tuyg'u va kayfiyat orqali ifodalanadi. Qo'shiq - san'atning oliy turi bo'lgan she'riyatning qadimiy va keng tarqalgan turidir. Qo'shiq so'zini XI asrning tilshunos olimi Maxmud Qashg'oriyning mashxur asari "Devoni lug'otit turk" asarida o'qish mumkin. O'zbek xalq an'anaviy qo'shiqlarining uzoq tarixini o'rganishda "Devoni lug'otit turk"ning uchala tomida tarqoq holdagi qo'shiqlar ko'plab uchrasada, bundan ming yil ilgari ham qo'shiqlarning rang-barangligi ko'rinishlarini oilaviy, mehnat, mavsumiy marosim va ishq muhabbat mavzusidagi qo'shiqlarning keng tarqalganligi, ularning til ibrolari, vazn, qofiyalaridan qo'shiq ekanligini ko'rish mumkin. Maxmud Qashg'ariy tomonidan chegil, qipchoq kabi qabilalar orasida to'plangan qo'shiqlar yordamida o'zbek yozma adabiyotining yuzaga kelishi va taraqqiyot etishi uchun lozim bo'lgan adabiy zaminning bir qismini qo'shiqlar tashkil etgan deyish mumkin. Devondagi to'rtliklarning xalq qo'shiqlari asosida yaratilgan yozma adabiyot namunalari sifatida e'tirof etish ayni haqiqat bo'ladi. Qo'shiq so'zini yana bir mashhur qomusiy olim Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham uchratamiz.

ADABIYOTLAR

1. Karimova R., Sayfiillayeva D. O'zbek yakka ayollar raqsi. T. 2007-y.
2. Avdeyeva L. O'zbek milliy raqsi tarixidan. T. 2001y.
3. Abraykulova N. Raqs jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Toshkent. 2004-y.
4. Xursandov H., Qurbonova Sh. "Surxon raqs maktabi". T. 201 ly.
5. Vasil'yeva-Rojdestvenskaya. Tarixiy-maishiy raqs. M. 1971y
6. Hamrayeva G. Raqsning milliy qiyofasi. T. 2012y.
7. Zvyozdochkin V.A. Klassicheskiy tanets. M. 2003y.